



## CHEZ TILINI O'QITISHDA TALABALARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

**Bobir Yuldashev**

*Toshkent Kimyo-Teknologiya Instituti*

E-mail: [yuldashevbobur@mail.ru](mailto:yuldashevbobur@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu tezis chet tilini o'qitishda talabalarga ta'sir etuvchi omillarni keng tahlil qiladi. Chet tilini o'rganish jarayoni ko'plab ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'lib, ularning har biri talabaning muvaffaqiyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bundan tashqari, maqolada motivatsiya, o'qituvchi va o'qish muhiti, shuningdek, texnologik vositalar va o'z-o'zini o'rganish kabi omillar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** talabalar, muommo, omillar, ta'sir, o'qituvchi, psixologik, lingvistik, refleksiya.

### KIRISH

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarning refleksiv kompetensiyasini ayniqsa pedagogik amaliyot davomida samarali shakllantirishga erishish mumkin. Bunda, albatta, kasbiy tafakkurining refleksiv sifatlariga ta'sir etuvchi bir qator ichki va tashqi omillarni ham hisobga olish zarur. Tildan ixtisos beradigan oliy ta'lim muassasalari talabalarining bo'lajak kasbiy va refleksiv kompetensiyalarini singdirish yo'llarini belgilovchi o'zaro aloqador omillar mavjud. Bular didaktik, lingvistik, psixologik, psixolingvistik, metodik omillardir. Birgina psixologik omilni taxlil qiladigan bo'lsak, ular quyidagilardan iboratdir:

- talabalar o'quv faoliyatining ijobiy motivasion jixati mavjudligi;
- talabalarning psixik faolligi;
- talabalarning o'zligini anglashlarini shakllantira olishlari;
- oliy ta'lim muassasasi sharoitiga talabalarning moslasha olish jarayoni.

Demak, talabaning o'zligini anglashni xamda refleksiyani shakllantirish sekin va muayyan tartibda amalaga oshiriladi [1].

M.Uollesning so'zlariga ko'ra, pedagogikada refleksiv yondashuv asosiy yondashuvga aylanishi kerak, chunki u o'qituvchining kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi: "O'qituvchi ishidagi refleksiv komponent obyektiv ravishda barcha vaziyatlar uchun tayyor maslahatlar va tavsiyalar berilgan universal ma'lumotnomani yaratishning umuman imkoniyati yo'qligidan kelib chiqadi. O'quv jarayoni shu qadar dinamik va o'zgaruvchanki, pedagogik ishning barcha sirlarini bir martadayoq va umuman o'zlashtirish mumkin emas. Bugun benuqson ishlagan narsa ertaga mavjud bo'lmasligi yoki hatto yaroqsiz bo'lishi mumkin. Shu sababli, o'qituvchilik faoliyati tabiatiga ko'ra ijodiydir, o'qituvchi esa o'z ishini doimiy ravishda tahlil qiladigan refleksiv mutaxassisdir" [2].



S.Yu.Stepanov ta'kidlaganidek, bo'lajak xorijiy til o'qituvchisining refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun, minimal hajmda bo'lsa ham, shaxsiy amaliy kasbiy pedagogik faoliyat tajribasi [3] bo'lishi kerak. Xorijiy til o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik tayyorgarlik bosqichida refleksiv kompetentlikni rivojlantirish vositalarini izlash va talabalarning til o'qitish faoliyatida qo'llash istiqbolli va samarali hisoblanadi.

Talabalarning refleksiyanmagan o'quv faoliyati foydasiz sanaladi va vaqt o'tgach kasbiy rivojlanishga emas, balki kasbiy stagnatsiya (kasbiy turg'unlik)ga [4] olib keladi. Shu sababli pedagogik oliy ta'lim muassasalarining xorijiy tillarni o'rganuvchi talabalari "Pedagogik mahorat" fanini o'rganish jarayonida nafaqat yangi bilimlarga ega bo'ladi, balki o'zlarining refleksiv qo'nikmalarini rivojlantiradi, refleksiv kompetentlikning rivojlanish darajasi va sifatini oshirishga yo'naltiriladi.

Refleksiv pedagogik fikrlash bu, eng avvalo, tanqidiy fikrlash bo'lgani uchun kundalik amaliyot muammolari va qiyinchiliklarini belgilangan qolipga ko'ra emas, balki ochiqlik bilan shaxsiy e'tiqodlari va qadriyatlari asosida qabul qilish va hal qilishga tayyorlikka asoslanadi.

Pedagogik refleksiya qobiliyatini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari, fikrlarning kengligi, qiziquvchanlik, sabr-toqat, xavf va tajriba olishga tayyorlik, fikr-mulohazalarga yo'naltirish va muqobil yechimlarni izlab topish kabi shaxsiy omillar ham aniqlangan [5]. O'qituvchiga xos ushbu shaxsiy sifatlar ham subyekt-subyekt, ham subyekt-obyekt tizimidagi uning faoliyati ustakovkalarining ham belgilaydi.

## XULOSA

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarga asoslanib, mualliflar talabalarning chet tilini o'rganishga refleksiv tayyorgarligi darajasini baholash uchun quyidagi mezonlarni taklif qilishadi: faoliyat va fan mezonlari, ular o'z navbatida ma'lum ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Masalan, faoliyat mezoniga quyidagi ko'rsatkichlar kiradi:

- operativ harakatlarning to'liqligi;
- boshqa o'quv vazifasini bajarish uchun refleksiv tayyorgarlikning ma'lum darajasini o'tkazish;
- mavzu mezoni talabaning o'z bilim faoliyatidan qoniqishi;
- guruhdagi talabaning ijobiy o'z-o'zini anglashi;
- chet tilini o'rganishda o'z-o'zini hurmat qilish dinamikasi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi.



## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алексеев Н. Г. Проектирование условий развития рефлексивного мышления: автореф. дисс. ... д. псих. н. М., 2002. 41 с.
2. Urazbaev Khikmatullo. Theoretical foundations of portfolio pedagogy: a review of literature. Westminster International University Tashkent, Uzbekistan // Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2021, No 3. P. 93-113. <https://journal.fledu.uz/uz/til-portfolios-tehnologiyasining-nazarij-asoslari-adabiyotlar-sharhi>.

